

**ADLIYA ORGANLARI TIZIMIDA RAQAMLI BOSHQARUV VA
INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING NAZARIY-
HUQUQIY ASOSLARI**

**THEORETICAL AND LEGAL FOUNDATIONS OF DIGITAL GOVERNANCE
AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE JUSTICE SYSTEM**

Abdiyeva Dilfuza Ixtiyorovna

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti, Yurisprudensiya yo‘nalishi, 2-kurs talabasi
E-mail: abdiyevakookowa@gmail.com*

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi adliya organlari tizimida raqamli boshqaruv va innovatsion texnologiyalarni joriy etishning nazariy-huquqiy asoslari keng qamrovli ilmiy tahlil ostiga olingan. Raqamlashtirishning huquqiy mazmuni, davlat boshqaruviga tatbiq etilishining nazariy modellari va xalqaro standartlar nuqtai nazaridan o‘rganilgan. Tadqiqotda Germaniya, AQSh, Fransiya, Yaponiya va Estoniya tajribasidan foydalanilgan holda qiyosiy-huquqiy tahlil o‘tkazilgan. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy bazasi xususan PQ-3666-son, PQ-5168-son, PQ-5025-son qarorlari hamda tegishli qonun hujjatlari asosida mavjud muammolar aniqlangan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki: e-huquqshunos, lawyer.adliya.uz, e-advokat.uz kabi platformalar samaradorligini oshirishda tizimiy huquqiy to‘siqlar mavjud bo‘lib, ularni bartaraf etish uchun yangi mexanizmlar zarur. Shuningdek, davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish sohasidagi raqamli tizimda sanalar haqqoniyligini tekshirish imkonsizligi va advokatlar mehnatiga haq to‘lash tizimidagi adolatsizliklar aniq misollar orqali tahlil qilingan. Maqolada xalqaro reytinglar (EGDI, e-Government Development Index), BMT va Jahon banki ma‘lumotlari, O‘zbekistonning raqamli transformatsiya ko‘rsatkichlari 2020–2024 yillardagi dinamikada o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: *Raqamli boshqaruv, adliya organlari, innovatsion texnologiyalar, e-government, huquqiy tartibga solish, qiyosiy huquq, O‘zbekiston, raqamlashtirish, yuridik yordam, normativ-huquqiy hujjatlar, sun‘iy intellekt, kiberxavfsizlik*

Abstract

This article provides a comprehensive scientific analysis of the theoretical and legal foundations of digital management and the introduction of innovative technologies in the justice system of the Republic of Uzbekistan. The legal content of digitalization, theoretical

models of its application to public administration and international standards are studied. The study conducted a comparative legal analysis using the experience of Germany, the USA, France, Japan and Estonia. The current regulatory and legal framework of the Republic of Uzbekistan, in particular, resolutions No. PQ-3666, No. PQ-5168, No. PQ-5025 and relevant legislative acts, identified existing problems. The results of the study show that: there are systemic legal obstacles to increasing the efficiency of platforms such as e-huquqshunos, lawyer.adliya.uz, e-advokat.uz, and new mechanisms are needed to eliminate them. Also, the impossibility of checking the validity of dates in the digital system of providing legal aid at the state expense and the injustices in the system of remuneration for lawyers' work are analyzed through specific examples. The article studies international ratings (EGDI, e-Government Development Index), UN and World Bank data, and Uzbekistan's digital transformation indicators in the dynamics of 2020–2024.

Keywords: Digital governance, justice bodies, innovative technologies, e-government, legal regulation, comparative law, Uzbekistan, digitization, legal aid, regulatory legal acts, artificial intelligence, cybersecurity

Kirish. Zamonaviy dunyo taraqqiyoti shuni ko‘rsatadiki, davlat boshqaruvi tizimini raqamlashtirish nafaqat texnologik masala, balki siyosiy-huquqiy zarurat sifatida maydonra chiqmoqda. Adliya organlari huquq ijodkorligi, qonunchilikni nazorat qilish, fuqarolarga yuridik xizmat ko‘rsatish va normativ-huquqiy hujjatlarni tartibga solish kabi strategik vazifalarni bajaruvchi idora sifatida raqamli transformatsiya jarayonining markaziy bo‘g‘iniga aylanishi zarur. Adliya organlari tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish masalasi ko‘pincha faqat texnik jihatdan ko‘rib chiqiladi. Holbuki, bu masalaning chuqur huquqiy asosi mavjud bo‘lib, uning shakllantirilmasligi amalga oshirilayotgan islohotlarning barqarorligiga jiddiy xavf tug‘diradi. Shu sababli ushbu tadqiqot raqamlashtirish jarayonining aynan nazariy-huquqiy poydevorini o‘rganishga qaratilgan. O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda adliya tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan bir qator muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PQ-3666-son qarori adliya vazirligi tizimini tubdan qayta qurish uchun huquqiy asos yaratdi. 2021-yilda qabul qilingan PQ-5025-son qaror tartibga solish ta'sirini baholash tizimini takomillashtirdi. 2021-yildagi PQ-5168-son qaror esa davlat organlariga yuridik xizmat ko‘rsatishning yangi modelini joriy etdi. 2024-yilgi VMQning 774-son qarori davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish sohasidagi munosabatlarni tartibga soldi. Biroq barcha bu islohotlar yagona kontseptual nazariy-huquqiy doiraga birlashtirilmagan, bu esa tadqiqotimizning asosiy muammosini belgilaydi.

Muammoning dolzarbligi va tadqiqot metodologiyasi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2022-yilgi e-Government Survey hisobotiga ko‘ra, O‘zbekiston elektron hukumat rivojlanish indeksi (EGDI) bo‘yicha 0.6276 ball bilan jahon reytingida 69-o‘rinni egallagan. 2024-yilgi hisobotda esa mazkur ko‘rsatkich 0.7034 ga yetgan va O‘zbekiston 59-o‘ringa ko‘tarilgan. Bu o‘sinh sezilarliidan ko‘ra, lekin rivojlangan mamlakatlar Daniya (0.9717), Finlandiya (0.9452), Koreya Respublikasi (0.9529) bilan taqqoslaganda hali ham katta masofa mavjud. Aynan mana shu raqamlar amaliy tadqiqot zarurligini asoslaydi. Jahon banki ma'lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda 2020–2023 yillarda e-davlat xizmatlaridan foydalanish 38 foizdan 64 foizga oshgan. Ammo adliya sohasidagi elektron xizmatlar sifati bo‘yicha fuqarolar mamnuniyati darajasi 2023-yil monitoringida atigi 51 foizni tashkil etgan, bu esa huquqiy xizmatlar raqamlashtirishida sifat muammolari mavjudligini ko‘rsatadi. Tadqiqot metodologiyasi jihatidan maqolada qiyosiy-huquqiy, tizimli tahlil, induktiv-deduktiv va huquqiy modellashtirish usullaridan foydalanilgan. Birlamchi manbalar sifatida O‘zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari, lex.uz ma'lumotlar bazasi, BMT va Jahon banki hisobotlari, xalqaro ilmiy jurnallar maqolalari tahlil qilingan. Amaliy kuzatishlar sifatida O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimida amalga oshirilgan amaliyot davomida yig‘ilgan empirik ma'lumotlar ishlatilgan. "Raqamli boshqaruv" (digital governance) atamasi xalqaro huquq nazariyasida turlicha talqin etiladi. Xalqaro Telekomunikatsiya Ittifoqi (ITU) ta'rifiga ko‘ra, bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali davlat boshqaruvini amalga oshirish, fuqarolar bilan munosabatlarni optimallashtirish va xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish tizimi. OECD esa raqamli boshqaruvni quyidagicha izohlaydi: "raqamli texnologiyalarni davlat faoliyatiga integratsiyalash orqali shaffoflik, javobgarlik va samaradorlikni ta'minlash" (OECD Digital Government Framework, 2020). O‘zbekiston qonunchiligida "raqamli boshqaruv" atamasining yaxlit huquqiy ta'rifi hozirgacha rasmiy tarzda mustahkamlanmagan. "Axborot texnologiyalari va telekommunikatsiyalar sohasini rivojlantirish" bo‘yicha qonun hujjatlari, xususan O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrda "Elektron raqamli imzo to‘g‘risida"gi Qonuni va 2015-yil 13-maydagi 120-sonli "Davlat xizmatlari ko‘rsatish hamda davlat organlari va boshqa tashkilotlarning idoralararo axborot hamkorligi tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Qonuni bu sohadagi asosiy hujjatlar hisoblanadi. Biroq, ushbu qonunlar raqamli boshqaruvning faqat texnik jihatlarini tartibga soladi va adliya tizimiga xos bo‘lgan maxsus raqamli munosabatlarni qamrab olmaydi. Huquq nazariyasida raqamli boshqaruvni uch darajada ko‘rish mumkin: (1) infrastruktura darajasi texnologik platformalar va tizimlar; (2) jarayon darajasi ma'muriy tartib-taomillarning raqamlashuvi; (3) mazmun darajasi huquqiy normalarning raqamli muhitga moslashuvi.

Adliya organlari uchun aynan uchinchi daraja mazmun darajasi eng muhim va bir vaqtning o‘zida eng kam o‘rganilgan muammo hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston amaldagi qonunchiligida raqamli adliya boshqaruvi uchun maxsus huquqiy asos sifatida faqat PQ-3666-son qaroriga ko‘ra yaratilgan "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi va AKTRM (Adliya organlari va muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi) faoliyati ko‘rsatilishi mumkin. Biroq bu ikki tuzilma ham o‘zaro yagona raqamli arxitektura doirasida ishlamagani sababli tizimli sinergiya ta‘minlanmayapti.

Xorijiy tajriba: qiyosiy-huquqiy tahlil. Estoniya modeli. Estoniya dunyo bo‘yicha raqamli boshqaruvning eng rivojlangan namunasi sifatida tan olingan. 2001-yildan beri joriy etilgan "X-Road" ma'lumotlar almashinuv tizimi barcha davlat organlarini, jumladan adliya tizimini yagona raqamli ekotizimga birlashtirgan. Estoniya 2002-yilda qabul qilingan "Raqamli imzo to‘g‘risida"gi Qonun orqali raqamli imzoni qog‘oz imzo bilan huquqiy jihatdan tenglashtirdi. Bu qadam 20 yildan so‘ng O‘zbekiston uchun ham model bo‘lib xizmat qildi, biroq O‘zbekistonda uning qo‘llanish doirasi hali cheklangan. 2023-yildagi ma'lumotlarga ko‘ra, Estoniyada adliya tizimidagi barcha ma'muriy tartib-taomillarning 99 foizi onlayn shaklda amalga oshiriladi. Soliq to‘lashdan tortib to nikoh rasmiylashtirish va notariat xizmatlarigacha 100 dan ortiq davlat xizmati to‘liq raqamli shaklga o‘tkazilgan. Buning ortida 2002-yildan buyon izchil rivojlantirib kelayotgan yagona identifikatsiya tizimi (e-ID) turibdi.

Germaniya modeli. Germaniyada adliya tizimini raqamlashtirish 2017-yildan faol boshlangan. "Elektronische Akte" (E-Akte) elektron ish yuritish tizimi 2026-yildan barcha federal va lend sudlari uchun majburiy qilingan. Germaniyaning 2017-yilgi "Onlayn samaradorligi to‘g‘risida"gi Qonuni (Onlinezugangsgesetz OZG) davlat organlarini barcha 575 ta xizmatni 2022-yilga qadar raqamli shaklga o‘tkazishni majbur qildi. Biroq 2023-yilgi hisobotlarga ko‘ra, bu maqsad faqat 35 foiz bajarilgan, bu esa hatto rivojlangan mamlakatlarda ham qonunchilik va amaliyot o‘rtasidagi bo‘shliq mavjudligini ko‘rsatadi. Germaniya tajribasidan O‘zbekiston uchun muhim xulosa shuki: majburlov normasiz raqamlashtirishni faqat rag‘batlantirish orqali amalga oshirish samarasizdir. Huquqiy normalar tizimida "qonuniy muddatlar" va "javobgarlik" mexanizmlari yo‘q ekan, raqamlashtirish harakati sust kechadi.

AQSh tajribasi. Qo‘shma Shtatlarda 2002-yilda qabul qilingan "E-Government Act" federal darajada raqamli boshqaruvning huquqiy asosini yaratdi. Adliya Departamenti (Department of Justice) uchun maxsus "Digital Justice Framework" 2019-yilda ishlab chiqilgan bo‘lib, u uch asosiy ustunni o‘z ichiga oladi: ma'lumotlar maxfiyligi (privacy), kiberxavfsizlik va xizmatlar mavjudligi. AQSh Federal sudlari tizimida 2021-yilda joriy

etilgan "PACER" (Public Access to Court Electronic Records) tizimi yiliga 25 million foydalanuvchiga xizmat ko‘rsatadi.

Yaponiya modeli. Yaponiya 2021-yilda "Raqamli agentlik" (Digital Agency) deb nomlangan maxsus boshqarma tuzdi va uni hukumatning barcha raqamli transformatsiya jarayonlarini boshqarishga vakolatlantirdi. Adliya vazirligi uchun 2023-yilda "Legal Technology Strategy" hujjati tasdiqlandi, bu hujjat sun'iy intellektni qonunchilikka tatbiq etishning huquqiy doirasini belgiladi. Yaponiyaning o‘ziga xos tomoni shundaki, u raqamlashtirish bilan birga «ningen-chushin» insoniy muhit tamoyilini saqlashga alohida e'tibor beradi.

Fransiya tajribasi. Fransiyada 2016-yilda qabul qilingan "Loi pour une République numérique" (Raqamli respublika to‘g‘risidagi qonun) ma'lumotlarga ochiqlik, algoritmik qaror qabul qilish shaffofligi va raqamli xizmatlardan foydalanish huquqini kafolatladi. Fransiyaning «Demarches Simplifiées» platformasi orqali 2023-yilda 8 milliondan ortiq ma'muriy ariza onlayn shaklda topshirilgan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, yuqoridagi barcha mamlakatlarda raqamli adliya boshqaruvining muvaffaqiyati uch omilga bog‘liq: birinchidan maxsus huquqiy me'yoriy baza; ikkinchidan yagona raqamli arxitektura; uchinchidan amaldagi qonunchilikni raqamli muhitga moslashtirishning tizimli mexanizmi. O‘zbekistonda hozircha bu uch omildan faqat birinchisi qisman mavjud.

O‘zbekiston adliya tizimidagi raqamli platformalar: huquqiy tahlil. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining raqamli infratuzilmasi bir nechta asosiy platformalardan iborat. Ushbu bo‘limda ularning huquqiy asoslari va amaliy samaradorligi tahlil qilinadi. E-huquqshunos platformasi. Ushbu tizim PQ-5168-son qaror asosida joriy etilgan bo‘lib, davlat muassasalari qabul qiladigan ichki hujjat loyihalarining qonunchilikka muvofiqligini tekshirishga mo‘ljallangan. Yuridik xizmat ko‘rsatish markazlari (YXKM) mazkur tizim orqali buyruq, shartnoma va boshqa ichki normativ hujjatlarga xulosa beradilar. Tadqiqot davomida kuzatilgan muhim texnik cheklov: tizimda bir vaqtda faqat bitta hujjat ko‘rilishi mumkin, ilova sifatida yuklab qo‘yilgan qo‘shimcha hujjatlarni esa platformadan tashqarida alohida ochim zarur. Bu esa xulosa sifatini pasaytiradi va texnik xatolarga yo‘l qo‘yish xavfini oshiradi. PQ-5168-son qarorga ko‘ra, YXKM hujjat loyihasini 3 ish kuni ichida ko‘rib chiqishi lozim. Biroq Mehnat kodeksining 157, 171-moddalari bilan qo‘shib tahlil qilganda, bir qator hollarda bu muddat texnik jihatdan bajarib bo‘lmaydi: masalan, mehnat shartnomasi bekor qilish haqidagi kelishuv ham tuzilish, ham ijro etilish kunida Markazga yuborilsa, qonuniy muddatlar o‘rtasida ziddiyat yuzaga keladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ushbu kolliziyanitartibga soluvchi maxsus norma qonunchiligimizda mavjud emas. Lawyer.adliya.uz va e-advokat.uz platformalari. VMQning 774-son qarori (2024-yil) asosida

ishlaydi. Lawyer.adliya.uz orqali advokatlarning navbatchilik jadvallari va sud so‘rovnomalari ko‘rinadi, e-advokat.uz esa advokatlik faoliyatini litsenziyalash uchun ishlatiladi. Tahlil natijalari ko‘rsatmoqdaki, ushbu ikkita tizim o‘rtasida real vaqt rejimida ma'lumot almashinuvi yo‘q. Advokat bir tizimda ro‘yxatdan o‘tsa, ikkinchi tizimda bu avtomatik aks etmaydi. Smartoffice.adliya.uz va murojaat.gov.uz tizimlari. Ushbu tizimlar fuqarolardan kelib tushadigan arizalarni ro‘yxatga olish va javob berish uchun mo‘ljallangan. Murojaat.gov.uz 2018-yildan ishlayapti va 2023-yilgi statistikaga ko‘ra, yiliga 1,2 milliondan ortiq murojaat qabul qilinadi. Biroq kuzatuv shuni ko‘rsatmoqdaki, smartoffice.adliya.uz va murojaat.gov.uz tizimlari orasida ham avtomatik sinxronizatsiya mavjud emas, bu esa bir xil murojaatni bir necha tizimda alohida-alohida kiritish zarurligiga olib keladi.

Amaldagi qonunchilikdagi muammolar va xuquqiy tahlil. Davlat hisobidan yuridik yordam tizimidagi muammolar. VMQning 774-son qarori (2024-yil) davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish tartibini belgilaydi. Mazkur Nizomning 35-bandiga ko‘ra, advokat ma'lumotnomada ishtirok etgan kunlarini ko‘rsatadi, bu ma'lumotnoma esa ishdagi vakolatli organ tomonidan kelishilishi lozim. Biroq amalda bir seans davomida advokat bir necha kun ishtirok etgan bo‘lsa, u sanalarning haqqoniyligini tekshirish uchun na lawyer.adliya.uz tizimi, na sud qarori yetarli bo‘lmaydi. Ushbu ma'lumotlarga asosan, bu muammo faqat texnik emas, balki huquqiy muammodir: ma'muriy javobgarlik masalasi kelib chiqqanda kim javob beradi? Advokat yolg‘on ma'lumot bergan deb hisoblab ko‘rilsa, unga qarshi me'yoriy asos qanday? Nizomning 47-bandida advokat ma'lumotnomadagi ma'lumotlarning ishonchliligi uchun shaxsan javobgar ekanligi belgilangan, biroq bunday javobgarlikni amalga oshirish mexanizmi va tekshirish imkoniyati qonunchilikda hali to‘liq tartibga solinmagan. Tartibga solish ta'sirini baholash (TSTB) tizimining raqamli integratsiyasidagi muammolar. PQ-5025-son qaroriga ko‘ra barcha muhim normativ-huquqiy hujjat loyihalari TSTB jarayonidan o‘tishi shart. Jamoatchilik muhokamasi uchun regulation.gov.uz portali mo‘ljallangan. Biroq 2021–2023 yillar davomida taqdim etilgan hujjatlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, TSTB hisobotlarining aksariyatida miqdoriy foyda-xarajat tahlili mavjud emas, bu esa OECD uslubiyotining talab etgan minimal standarti hisoblanadi. Adliya vazirligiga kelib tushadigan TSTB hisobotlarining sifatini baholash mexanizmi esa aniq belgilangan mezonlarga ega emas. Raqamli platformalar o‘rtasidagi huquqiy bo‘shliqlar. O‘zbekiston Respublikasida e-hujjat almashinuvi va elektron raqamli imzo to‘g‘risidagi qonun hujjatlari mavjud bo‘lsa-da, adliya organlari ichki tizimlarining o‘zaro integratsiyasini tartibga soluvchi maxsus huquqiy norma yo‘q. Bu esa har bir tizimning mustaqil ravishda ishlashiga va ma'lumotlar takrorlanishiga olib keladi. Xususan, E-huquqshunos tizimida kelgan hujjat loyihalari smartoffice.adliya.uz tizimiga avtomatik o‘tib bormasligi, bu ikkita tizim o‘rtasida idoralararo interoperabillik normasi qonunchilikda belgilanganligi sabab emas.

Kiberxavfsizlik va ma'lumotlar himoyasiga doir normativ kamchiliklar. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-apreldagi "Kiberxavfsizlik to‘g‘risida"gi Qonuni (ORQ-764) umumiy normalarni belgilaydi. Biroq adliya organlari uchun maxsus kiberxavfsizlik talablari xususan, suda ish yuritish jarayonida ishlatilayotgan raqamli qurilmalar, ularning autentifikatsiya darajasi va ma'lumotlar saqlash muddati alohida normativ hujjatda tartibga solinmagan. Amaliyot davomida shunday holatga guvoh bo‘ldiki, tuman adliya bo‘limlarida ishlatiladigan mobil qurilmalar yagona bosqichli autentifikatsiya tizimiga ega edi va bu esa fuqarolik ma'lumotlarining xavfsizligiga jiddiy xavf tug‘dirishi mumkin edi.

Sun'iy intellekt va algoritmik qaror qabul qilish: adliya uchun istiqbol. Sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish masalasi dunyoda dolzarb munozara ob'ektiga aylangan. Evropa Ittifoqining 2024-yilgi AI Act sun'iy intellekt to‘g‘risidagi Reglamenti "yuqori xavfli" tizimlar kategoriyasiga, xususan, sud va huquq ijrosi sohasida ishlatiladigan algoritmlarni kiritgan. Bu hujjat 2026-yildan to‘liq kuchga kirishini rejalashtirilgan. O‘zbekiston adliya tizimida sun'iy intellektni tatbiq etishning hozirgi holati. "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi tomonidan ishlab chiqilayotgan qonunchilik tahlili tizimlari va lex.uz qidiruv tizimida mashinali o‘rganish elementlari mavjud. Biroq sun'iy intellektni normativ-huquqiy hujjatlarni ekspertizadan o‘tkazishda yordamchi vosita sifatida ishlatishning huquqiy asosi hali ishlab chiqilmagan. Ilmiy qarashiga ko‘ra, adliya tizimida sun'iy intellektni joriy etish uchun quyidagi huquqiy savollar avval hal etilishi zarur: birinchi algoritmik qaror qabul qilish inson qaroriga nisbatan qanday yuridik kuchga ega bo‘lishi kerak? Ikkinchi, algoritmik tahlil natijalariga asoslangan xulosa berish orqali yuzaga keladigan zararlar uchun kim mas'ul? Uchinchi, fuqarolarning raqamli huquqlari himoyasi ta'minlanganmi? Bu savollarga javob bermasdan, texnologiyani joriy etish faqat samaradorlikni pasaytirishi mumkin. Estoniyaning X-Road tizimi va Fransiyaning algoritmik shaffoflik qonuni tajribasi shuni ko‘rsatadiki, muvaffaqiyatli modellar «texnologiya birinchi» emas, balki «huquq birinchi» tamoyiliga asoslanadi. Ya'ni avval huquqiy asos yaratilib, so‘ngra texnologiya joriy etiladi, aksincha emas.

Taklif va xulosalari. Taklif etilayotgan mexanizmlar va tartibga solish modeli. Tadqiqot natijalari va yuqorida keltirilgan tahlillarga asoslanib, quyidagi aniq takliflarni ilgari suriladi:

Birinchi taklif: "Adliya organlari tizimida raqamli boshqaruv to‘g‘risida"gi maxsus Nizomni qabul qilish. Mazkur Nizomda quyidagilar belgilanishi lozim: adliya organlari raqamli platformalarining o‘zaro interoperabillik standarti; ma'lumotlar uzatishda kriptografik himoya talablari; har bir platformaning javobgar tarkibiy bo‘linmasi va sifat mezonlari.

Ikkinchi taklif: E-huquqshunos tizimida "bo‘linma ekran" funksiyasini joriy etish. Ushbu texnik yangilik hujjat loyihasini va unga ilova qilingan hujjatlarni bir vaqtda ko‘rish imkonini

beradi. Buning uchun maxsus qonunchilik talab etilmaydi, PQ-5168-son qarorga texnik ilova sifatida kiritilishi kifoya.

Uchinchi taklif: Mehnat kodeksi bilan YXKM muddatlari o‘rtasidagi kolliziyaní bartaraf etish uchun PQ-5168-son qarorga qo‘shimcha kiritish. Xodimning ishdan bo‘shatilish kuniga to‘g‘ri keladigan hujjat loyihalari uchun 24 soatlik tezlashtirilgan ko‘rib chiqish tartibi belgilanishi lozim.

To‘rtinchi taklif: Davlat hisobidan yuridik yordam ma‘lumotnomalarini to‘liq avtomatlashtirish. Lawyer.adliya.uz tizimiga ma‘lumotnomalar bo‘limini qo‘shish orqali advokatning sud jarayonida ishtirok etgan kunlari tizim tomonidan avtomatik qayd etilishi va Adliya bo‘limiga elektron tarzda taqdim etilishi ta‘minlanishi mumkin. Bu esa VMQning 774-son qaroridagi 35-moddani amalga oshirishni sezilarli darajada soddalashtiradi.

Beshinchi taklif: Adliya organlari uchun ko‘p bosqichli autentifikatsiya standartini majburiy qilish. Fuqarolar shaxsiy ma‘lumotlarini o‘z ichiga olgan barcha tizimlar va qurilmalar uchun ikki bosqichli autentifikatsiya talabi ORQ-764-sonli Qonun asosida kiritilishi va nazorat mexanizmi belgilanishi zarur.

Oltinchi taklif: TSTB sifat mezonlarini raqamli ko‘rsatkichlarga asoslantirish. PQ-5025-son qarorga ilova qilingan TSTB Nizomida sifatni baholash uchun miqdoriy mezonlar foydaxarajat tahlilining minimal tarkibi, manfaatdor tomonlar so‘rovlarining minimal soni va jamoatchilik muhokamasida ishtirokchilar soni bo‘yicha bazaviy talablar — kiritilishi kerak.

Yettinchi taklif: Adliya organlari uchun sun‘iy intellekt tatbiq etishning huquqiy doirasini ishlab chiqish. Mazkur doira Evropa Ittifoqining AI Act tamoyillarini hisobga olgan holda, O‘zbekiston huquqiy tizimiga moslashtirilishi va quyidagi kafolatlarni o‘z ichiga olishi lozim: algoritmik qarorlar shaffofligi, fuqarolar e‘tiroz bildirish huquqi, algoritmik diskriminatsiyani taqiqlash.

Xulosa. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston adliya organlari tizimida raqamli boshqaruvni joriy etish jarayoni yaxlit kontseptual va huquqiy doiradan mahrum. Amalga oshirilgan islohotlar bir-biri bilan bog‘liq bo‘lmagan alohida normativ hujjatlar orqali tartibga solinib, yagona raqamli ekotizim sifatida shakllanmagan. Xorijiy tajriba , xususan Estoniya, Germaniya, Fransiya va Yaponiya modellari shuni ko‘rsatmoqdaki, muvaffaqiyatli raqamlashtirish «texnologiya» ustunligi emas, balki «huquqiy asos» mustahkamligi bilan belgilanadi. O‘zbekiston uchun bu tamoyilni qabul qilish strategik ahamiyatga ega. Ilmiy pozitsiyasi quyidagicha shakllanadi: adliya organlari tizimida raqamli innovatsiyalarni joriy etishning nazariy-huquqiy asosini to‘rtta ustun tashkil etishi lozim: (1) platformalararo interoperabillikni ta‘minlovchi maxsus normativ hujjat; (2) kolliziyanorma'larni bartaraf etuvchi tartibga solish mexanizmi; (3) fuqarolik ma‘lumotlarini himoya qiluvchi kiberxavfsizlik standarti; (4) algoritmik qarorlar uchun shaffoflik va javobgarlik tizimi.

Ushbu takliflar amalga oshirilsa, O‘zbekiston 2028 yilgacha EGDI reytingida 40-o‘rinlar doirasiga chiqishi va fuqarolar mamnuniyati ko‘rsatkichini 80 foizdan yuqoriga ko‘tarishi mumkin, bu esa hukumatning 2030-yilga mo‘ljallangan raqamli transformatsiya maqsadlari bilan to‘liq mos keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PQ-3666-son qarori "O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida". lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-martdagi PQ-5025-son qarori "Tartibga solish ta'sirini baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida". lex.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-iyundagi PQ-5168-son qarori "Davlat organlariga va tashkilotlariga yuridik xizmat ko‘rsatish faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida". lex.uz
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 21-noyabrdagi 774-son qarori "Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatadigan advokatlarni jalb etish va ularga haq to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida". lex.uz
5. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-apreldagi ORQ-764-son "Kiberxavfsizlik to‘g‘risida"gi Qonuni. lex.uz
6. O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrdagi " Elektron raqamli imzo to‘g‘risida "gi Qonuni. lex.uz
7. O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 13-maydagi 120-sonli "Davlat xizmatlari ko‘rsatish hamda davlat organlari va boshqa tashkilotlarning idoralararo axborot hamkorligi tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Qonuni. lex.uz
8. O‘zbekiston Respublikasining "Mehnat kodeksi"| lex.uz
9. O‘zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish to‘g‘risida"gi Qonuni. lex.uz
10. European Union. (2024). Regulation (EU) 2024/1689 — Artificial Intelligence Act. EUR-Lex. <https://eur-lex.europa.eu>
11. United Nations. (2022). E-Government Survey 2022: The Future of Digital Government. United Nations Department of Economic and Social Affairs. <https://publicadministration.un.org/en/Research/UN-e-Government-Surveys>
12. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. (2024). Adliya organlari raqamli xizmatlari hisoboti 2023. Adliya.uz.

13. Karimov, F. (2021). Normativ-huquqiy hujjatlar sifatini ta'minlashda tartibga solish ta'sirini baholash tizimining ahamiyati. Yuridik fanlar axborotnomasi, 2, 34–49.
14. OECD. (2020). Digital Government Framework. Organisation for Economic Co-operation and Development. <https://www.oecd.org/gov/digital-government/>
15. World Bank. (2023). World Development Report 2023: Migrants, Refugees, and Societies. World Bank. <https://www.worldbank.org/en/publication/wdr2023>
16. European Commission. (2023). eGovernment Benchmark 2023. European Commission.
17. ITU. (2022). Digital Government Interoperability Framework. International Telecommunication Union. https://www.itu.int/pub/D-STR-E_GOV.05-2022
18. Cotino Hueso, L. (2020). Artificial Intelligence and Digital Governance: Key Challenges for Public Law. Revista de Derecho Político, 107, 11–48. <https://doi.org/10.5944/rdp.107.2020.27517>
19. Dunleavy, P., Margetts, H., Bastow, S., & Tinkler, J. (2006). Digital Era Governance: IT Corporations, the State, and e-Government. Oxford University Press.